

## **OROL DENGIZINING EKOLOGIK HOLATI, BUGUNGI KUNDA OROLBO'YIDA QILINAYOTGAN ISLOHOTLAR**

*Usmonov Dilmurod Dolimovich*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Biologiya va geografiya o'qitish metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi*

*Muxsinboyev Odilbek Muxiddin o'g'li*

*Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi talabasi*

*Email: [odilbekmuxsinboyev@gmail.com](mailto:odilbekmuxsinboyev@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Hozirgi biz yashab turgan dunyoda yildan-yilga global ekologik muammolar ortib bormoqda. Jumladan, million yillik muzliklarning erishi, havoning issig'ligi ortishi, dengiz sathining kotarilishi va mizning mintaqamizdagi orol dengizining qurishi va uning ekologik va tibbiy muammolarni ortishiga sabab bo'lmoqda.

**Kalit so'zlar:** Amudaryo va Sirdaryoning deltasi, landshaft komplekslar, atmosfera, suvdan noto'g'ri foydalanish, pestitsidlar, [diareya](#) kasalliklari, [ozuqaviy yetishmovchiliklar](#), teratogenez, endokrin buzilish.

**Аннотация.** В мире, в котором мы сейчас живем, с каждым годом возрастают глобальные экологические проблемы. В частности, таяние ледников возрастом в миллион лет, повышение температуры воздуха, повышение уровня моря и высыхание Аральского моря в нашем регионе являются причинами увеличения экологических и медицинских проблем.


**Ключевые слова:** Дельта Амударьи и Сырдарьи, ландшафтные комплексы, атмосфера, неправильное использование воды, пестициды, диарейные заболевания, дефицит питательных веществ, тератогенез, эндокринные нарушения.

**Annotation.** From year to year, global environmental problems are growing in the world where we currently live. In particular, the million-year-old melting of glaciers, increased air heat, increased sea level and the drying of the Aral Sea in our region of Miz and its increasing environmental and medical problems.

**Keywords:** delta of Amudarya and Syrdarya, landscape complexes, atmosphere, water misuse, pesticides, diarrheal diseases, nutritional deficiencies, teratogenesis, endocrine disruption.

Orol dengizi ilgari vaqtda dunyodagi eng katta ichki dengizlardan biri hisoblanib, unda baliqchilik, ovchilik va transport maqsadlarda foydalanilar edi. Dengiz suv rejimini unga quyiladigan Amudaryo, Sirdaryo, yer osti suvlari hamda atmosfera yonilgʻilari tushishi va yuzadan suvning bugʻlanishi tashkil etadi. Qadimgi tarixiy davrlarda dengiz sathining 1,5 – 2,10 oʻzgarishi tabiiy iqlim hususiyati bilan boʻliq boʻlib, suvning hajmi 100—150 kub km, suv sathi maydoni – 4000 kv, km ni tashkil etgan. Sugʻoriladigan dehqonchilikning rivojlanishi natijasida sugʻorilishga foydalaniladigan qaytmas suvlar va qurgʻoqchilik yillari Amudaryo va Sirdaryoning deltasiga quyiladigan suv miqdori kamaydi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda dengizning sathi 1961-yilga nisbatan 16,8 m ga pasaydi. 1994-yil 36,6 m. Bunda dengizning hajmi 3-marta, yuzasi 2-marta, shurlanish darajasi 9-10 barobardan 34-37 ga ortadi. 2000-yilga borib 180—200 barobarga koʻtarildi. Hozirgi kunda dengiz sathining pasayishi yiliga 80 – 110 sm tashkil etmoqda. Qirgʻoq chizigʻi 60 – 80 km pasayib, ochilib qolgan yerlar 23 ming km<sup>2</sup> tashkil etadi. Amudaryo va Sirdaryoning kuyi oqimlarida suvning sifati yomonlashadi hamda ichish uchun yaroqsiz boʻlib qoladi. Ekologik tizmlar, oʻsimlik va hayvonlar chuqur inqirozga uchrayapti. Eng yomon axvol Janubiy oroldir. Ushbu mintaqa oʻz ichiga shimoliy gʻarbiy Qizil qum, Qora qum, Janubiy ustyurt va Amudaryo deltasi kabi landshaft komplekslarini oladi. Orol boʻyining umumiy maydoni – 473 ming km<sup>2</sup> boʻlsa, uning Janubiy qismi 245 ming km<sup>2</sup> tashkil etadi. Bunga KKR hududi, Oʻzbekistonning Xorazm viloyati, Turkmanistonning Toshavvoʻz viloyatlari kiradi.

Orol va orol bo'yida sodir bo'layotgan jadal ravishdagi cho'llanish hodisasi dunyo tajribasida uchratilmagan. Shuning uchun ham miqdor va sifat jihatidan baxolash ancha qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Dengiz tubining ochilishi va daryo deltalarining qurishi hisobiga cho'l maydonlari kengaymoqda. Ochilib qolgan 1 mln ga maydon yuzasi mayda tuz zarrachalari bilan qoplanib yangi shakldagi qum qoplamlarini hosil qiladi. Shunday qilib, markaziy Osiyo hududida kum, tuz ayrozonalarini shamol yordamida kuchirib yuruvchi kuchli yangi manba vujudga keldi. Dastlabki ma'lumotlarga karaganda yiliga atmosferaga 100—150 mln. tonnagacha chang – tuzon kutarilishi mumkin.[2]



Orol dengizining qisqarishi natijasida mahalliy aholi salomatligi bilan bog'liq muammolar yuzaga kelgani shubhasiz. Orol dengizi hududining ko'p qismi zarar ko'rganligining asosiy sabablaridan biri suvdan noto'g'ri foydalanish edi. Orol dengizi mintaqasidagi o'zgarishlar natijasida inson salomatligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ekologik ta'sirlarga suv sathining pasayishi, atrof-muhit va oziq-ovqat zanjiridagi pestitsidlar, chang bo'ronlari va havodagi o'zgarishlar misol bo'ladi.[1]

Dengiz quriganida ifloslantiruvchi moddalar yer yuzasiga chiqib, tuproqqa o'rnashadi, shu bilan birga havoga tarqaladi. Ushbu ekologik ta'sirlar mahalliy aholi salomatligiga keng ko'lamlı ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina kasallik holatlarining ko'payishi

Orol dengizi maydonining qisqarishi bilan bog'liq. Ifloslantiruvchi moddalardan eng ko'p zarar ko'radiganlar: chaqaloqlar va bolalar. Hududda ekologik muhitning o'zgarishi chaqaloqlar o'limining oshishiga xizmat qiladi. Bu mintaqada 1970-yillardan beri chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichlari ortib bormoqda. Go'daklar o'limi ko'rsatkichlarining oshishiga olib keladigan bu zararli moddalar Qozog'istonda 1993-yildan boshlab 70 taga yetganligi xabar qilingan. Toksinlar turli manbalardan kelib chiqishi mumkin: havodan nafas olish, ichimlik suvi va oziq-ovqat. Biroq, yosh chaqaloq nima yeyish yoki ichish borasida ko'p tanlovga ega emas. Ma'lum bo'lishicha, bu toksinlar emizish orqali ham o'tishi mumkin va bir qator hududlarda shifokorlar chaqaloqlarni emizishni tavsiya qilmaydilar, chunki emizikli ona suti zaharli hisoblanadi[2]

<b>Yosh bolalarning o'lim ko'rsatkichlari 1985-2008</b>					
<b>Davlat</b>	<b>1985-1990</b>	<b>1990-1995</b>	<b>1995-2000</b>	<b>2004</b>	<b>2008</b>
Afg'oniston	170	160	152	165	163
Qozog'iston	36	35	35	52	29
Qirg'iziston	45	40	40	42	50
Turkmaniston	58	55	55	74	74
O'zbekiston	53	44	44	62	48
Tojikiston	58	57	57	50	65
Birlashgan Qirollik				5.3	4.9
Kanada				5.2	5.4

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, boshqa shu hududga chegaradosh mamlakatlar hududlarda ham chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichlarining o'sishi kuzatilgan. Chaqaloqlar o'limi darajasiga ko'plab boshqa omillar ta'sir ko'rsatsa-da, bu ko'rsatkichlarning oshishiga hududdagi ekologik holat ta'sir ko'rsatishi aniq. Birgina Mo'ynoq tumanidagi bolalarda qayd etilgan barcha kasalliklarning 50 foizi nafas olish tizimidagi muammolar bilan bog'liq. Ushbu holatning ta'siri juda keng tarqalgan va turli kasalliklarga chalingan odamlarga ta'sir ko'rsatadi. Quyida Orol dengizi hududida chaqaloqlar o'limi, turmush darajasining pasayishiga olib keladigan sog'liqda uchrashi

mumkin bo'lgan kasalliklar ro'yxati keltirilgan: [diareya](#) kasalliklari, [ozuqaviy yetishmovchiliklar](#), teratogenez, endokrin buzilish, neyrorivojlanish ta'siri [gepatit](#), qizilo'ngach saratoni, turli xil saraton turlari, gipertoniya, yurak kasallig, [anemiya](#), buyrak kasallig va ko'z kasalliklari.[3] Atrof-muhit havosiga haddan tashqari ko'p uchib chiqayotgan, ya'ni yiliga 100 million tonnalab chiqayotgan tuzlar shu paytgacha abadiy muzliklar deya e'tirof etib kelingan Arktika yoki Grenlandiya muzliklarining asta-sekin erib borishiga va buning natijasida dunyo okeanlari sathining sezilarli ko'tarilishiga sabab bo'lyapti. Bu tuzlarning iqlimshunos olimlar, ekolog ekspertlar insoniyat boshiga muqarrar halokat solishidan tashvishlanib, bu kelgusida katta fojeaga olib kelishi haqida qayg'urmoqdalar. Hozirda sayyoramiz ekologik beqarorlik chegarasiga kelib qoldi. Bu albatta, tashvishli hol. Bugungi ekologik inqiroz, ya'ni yuksak darajadagi ekologik muammolar dunyoning qaysi bir qit'asida yoki mintaqasida vujudga kelishidan qat'iy nazar, albatta, inson uchun, to'laqonli aytish mumkinki, insoniyat uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Orol dengizi o'rnida Qizilqum va Qoraqum sahrolari o'rtasida yuzaga kelgan, maydoni 5,5 million gektarga teng bo'lgan yangi "Orolqum" sahrosi Orol dengizi fojeasi hisoblanib, dunyodagi eng yirik ekologik fojealardan biri sifatida, nafaqat, O'zbekiston, balki mintaqadagi barcha davlatlar uchun qator ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy va gumanitar muammolarni keltirib chiqardi. Qurigan dengiz tubidan ko'tariladigan qum va tuz bo'ronlari borgan sari avj olmoqda. Ushbu holat esa iqlim o'zgarishi sharoitlarida yanada avj olmoqda.[4] Mintaqamizning noyob hayvonot dunyosini saqlash uchun Orolbo'yi zonasi muhofaza qilinadigan transchegaraviy tabiiy hududlar tashkil etish ham taklif qilinadi. Yo'qolib borayotgan hayvonlar, jumladan, qoplon, qulon, sayg'oq va boshqa noyob jonivorlarni saqlab qolish uchun barcha ishlarni o'zaro kelishib amalga oshirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. 2018-yilning avgust oyida, Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmanistonning Turkmanboshi shahrida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari majlisida Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etishda Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro hamkorligi bo'yicha bir nechta takliflarini ilgari surib, Orolbo'yi

hududini ekologik innovatsiya va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish masalasini ko'rib chiqish haqida to'xtalgan edi[6]



Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 12 sentabrda BMTning Nyu-Yorkdagi bosh shtab-kvartirasida chiqish qilgan va 5 ta, xususan Orolbo'yi muammosiga e'tiborni oshirish taklifini ilgari surgandi. 2018 yilda Orolbo'yi mintaqasida insonlar xavfsizligi bo'yicha ko'p sheriklik asosidagi Trast fondi faoliyat boshladi.[5] 2020 yilning 23 sentabr kuni davlat rahbari BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida nutq so'zladı hamda global iqlim o'zgarishlari va Orolbo'yi hududidagi vaziyatga yana to'xtalib o'tdi. Prezident nutqida Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etgan edi. 2021 yilning 18 may kuni BMT Bosh assambleyasi 75-sessiyasining yalpi majlisida Shavkat Mirziyoyevning taklifiga ko'ra Orol dengizi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish to'g'risidagi maxsus rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilindi. 2022 yilda 107 ming gektar maydonda saksovul va boshqa cho'l o'simliklari ekilgan. Jami 590,3 tonna, shundan 391 tonna mahalliy aholi tomonidan cho'l o'simliklari urug'lari jamg'arilgan. 100 gektar saksovul va boshqa cho'l o'simliklaridan niholxonalar tashkil etilgan. Mazkur ishlarni bajarish uchun 635 nafar ishchi-xodim, 250 dona yuqori unumli traktorlar va 2 dona kichik aviatsiya jalb qilingan. Ushbu barpo etilgan yashil qoplamalar soha olimlari tomonidan doimiy monitoring qilinib borilmoqda.

Hulosa qilib aytganda albatta, bu kabi sa'y-harakatlar qurib bitgan dengizga qayta "jon" bag'ishlamoqda: Orol "ikkinchi hayotini" yashay boshladi, faqat bu safar dengiz emas, o'rmonzor bo'lib.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bogdanova E.P. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda ekologik kompetentsiyani shakllantirish. Fan va ta'limning zamonaviy muammolari. -2012. - No 5.
2. vikipediya
3. Micklin, P. P. (1988). [Desiccation of the Aral Sea: A Water Management Disaster in the Soviet Union](#)
4. Medium (*Orol dengizining muammosi kecha va bugunorol dengizining bugungi holati*)
6. Nesgovorova N.P. O'qituvchilarning ekologik ta'limni amalga oshirishga tayyorligi tahlilidan. Ochiq ta'lim. -M., 2007. -No 1. -S. 75-78.